

**OGAHYI IJODIDA QALB KECHINMALARINING TABIATGA OID ATAMALAR BILAN IFODALANISH
XUSUSIYATLARI**

Tursunova Dilrabo

TDSHU, Turkshunoslik fakulteti, 3-kurs talabasi

Bilamizki, O'zbek mumtoz adabiyotida tasvir ifodalari sifatida keng ko'lamda qo'llaniladigan atamalar, jumladan, o'simlik nomlari, zoonimlar, tarixiy shaxslar va joy nomlari (toponimlar) orqali ularning o'xshash yoxud qiyosiy belgi – xususiyatlari, sifatleri yordamida berilgan tushunchaning ta'sir va mazmundorlik xususiyatini oshirish, ijod na'munasini yana da rango-rang ifodalash uchun xizmat qiladi. Lekin ichki his - tuyg'ular va ular orqali yuzaga chiquvchi insonlarning hissiy-emotsional holatlarining ifoda tasviri diqqat bilan e'tibor bersak, tabiatga oid atama va tushunchalar bilan ta'rif etilishi va izohlanishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ijodkor salohiyatiga, iqtidori va iste'dodiga tayangan holda tilning lug'at boyligi va so'zlarning ma'no ifodalash xususiyatlarini inobatga olib, so'zlarni haqiqiy va majoziy ma'nolarida qo'llay olishi ijod na'munasiga sayqal beruvchi omillardandir. Tabiatga oid atamalar deganda nimalar nazarda tutilishiga kelsak: quyosh, oy, suv, dengiz, daryolar, osmon va osmon jismlari, tog'-u toshlar, mavsumlar (bahor, yoz, kuz, qish), kunning qismlari (sahar, oqshom, kunduz, kecha) va hokazo va ushbu kalimalarning ma'nodoshlari, shuningdek, yo'nalish mumtoz adabiyot ekanligini inobatga olgan holda ushbu so'zlarning arab, fors tillaridagi nomlanishlarini qamrab olishini aytib o'tmog'imiz darkor. Shunday xususiyatlarga boy o'zbek mumtoz adabiyotining Navoiydan keyingi turkiy tildagi adabiy asarlar muallifi sifatida ilk o'rinda tilga olinadigan yetuk namoyondalaridan biri shak-shubhasiz XIX asrda Xorazmda yashab, sermahsul ijod etgan o'zbek adabiyoti vakili Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiydir.

Adib ijodiyotining asosiy qismi haqiqiy va majoziy ishq mavzusida ekanligini inobatga olgan holda, uning o'z lirik asarlarida muallifni oshiq etgan timsolning ko'plab o'rinlarda quyoshga o'xshatilishini ma'lum bir ma'noda yurtiga sevgisi bilan ham bog'lashimiz mumkin. Quyida keltirilgan Ogahiyning "muborak" radifli g'azaliga bir nazar tashlasak:

Husning **quyoshi** tug'mish, ey mahliqo, muborak¹

Jumla jahong'a solmish, nur-u ziyo muborak.

Ma'lumimgizkim, "Xorazm" atamasi Xorazm tarixi bilimdoni S.P. Tolstoyning talqiniga ko'ra, eroniy "Xurhurshed" va "zmzem" so'zlari birlashuvidan kelib chiqqan holda "Quyoshli o'lka", "Quyoshli yer" degan ma'noni² bildirishi haqida keltirgan fikrlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, "quyosh" ramzidan ijodkorning quyoshli o'lka farzadi o'laroq o'lkasiga bo'lgan kuchli muhabbatidan ta'sirlangan holda turli ijodiy mahsullarida foydalanganini e'tirof etishimiz mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tmoq lozimki, adib ijodida "quyosh"ga qiyos munavvarlik keltiruvchi, uning ko'nglini shod aylaguvchi, unga baxtiyorlik hissini berguvchi timsol sifatida ham tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu tahlil o'rnagi sifatida quyidagi misralarni keltirib o'tamiz:

Yuz ochib kelgil, ey mahvash, **quyosh** yanglig' xirom aylab ³

¹ G'anixo'jayev F. "Ogahiy she'riyatidan". O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983. B-14.

² O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. X harfi. B-194.

³ Asarlar"(6 jildlik) . Devon. 1-jild. "G'afur G'ulom" nashriyoti. Toshkent. 1971. B-101.

Boshimg'a soldi savdo furqating subhimni shom aylab

Ushbu misrallarda quyosh yanglig' xirom aylab kel deya yorga murojaat qilishida ko'rishimiz mumkinki, quyoshli kunda inson ko'ngli naqadar xursandchilik bilan ruhlansa, qalbdagi g'amlar unut bo'lsa, yor tashrifi ham quyosh kabi bir yog'du misol qalblarni yoritguvchi nurga o'xshatilganini anglamoq mumkin.

Lekin quyida keltirilgan baytda biz "quyosh" atamasining ma'lum bir ma'noda o'tkinchi hisni ifodalaganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu baytda quyoshning kunduzi ko'kka ko'tarilishi va oqshom chog'ida botishini nazarda tutgan holda insonning ma'lum bir jabhada yuqori natijalarga erishgan onini quyoshga qiyoslansa-da, kibrlanmasligi kerakligi, chunki aynan quyosh kabi vaqti kelib ufqda yo'qolib borishi bilan ta'riflanishining guvohi bo'lamiz:

Ko'kka chiqsang ham **quyoshdek** tusharsan yer ostiga,

Izzu johi dahridin kibru havo qilmoq g'alat.⁴

Shuningdek, quyidagi bayt misolida **tashxis** san'ati orqali "quyosh"ni insoniy xususiyatlar bilan tavsiflagan holda jonlantirilishini, "quyosh" derkan boshqa - o'zini go'zallikda betakror deb bilgan go'zallarning chiroyi shoir qasd etkan timsolning chiroyi qadar emasligini, husni bilan kibrlanmasliklari kerakligini bildirib o'tganini ko'rishimiz mumkin:

Gah gahi ko'rguz quyoshqa chehrakim, ul xirasar,⁵

Bilsun o'z haddiniyu husn ichra da'volanmasun.

Yuroqida misol keltirilgan baytlarda biz "quyosh" ramzining qay hislarni ifodalay olishini, shuningdek, qanday ma'nolarni ifoda etish uchun qo'llanilishini ko'rib chiqdik. Lekin shuning bilan bir qatorda nafaqat "quyosh" tushunchasi balki "**bahor**" tushunchasi orqali ham "sevinch, shodlik, xursandchilik, yashnash" kabi hislarni ifodalanganini ko'ramiz:

Bog' ichra qadam, ey gul, qo'yg'ilki **bahor** o'lmish,

Bog' ahli tilab vasling besabru qaror o'lmish.⁶

Ushbu baytda bog' aro qadam qo'ysa, bog'ga bahor taftini keltirishini, bu orqali xushnudlik, ko'ngillarga sevinch ulashuvchi hisning bahor timsoli orqali berilganiga shohid bo'lamiz. Bundan tashqari, "bahor" so'zining o'z ma'nosi, ya'ni mavsum sifatida uning xususiyatlari bilan tasvirlanishi insonlarni bahoriy kayfiyatni ulashish maqsadida ehtiros uyg'otuvchi jo'shqinlik hissining qog'ozga tushirilganiga quyidagi baytlarda guvohi bo'lishimiz mumkin.

Azmi sayri bog' qil, ey gul'uzor, keldi **bahor**,

Qildi yuz fayzu tarovat, oshkor keldi **bahor**,

Bog'lara ziynat bag'ishlab, dashtlarg'a berdi fayz,

To qilur ofoqni jannat shior keldi **bahor**.⁷

Mavsumlar va ularni anglatuvchi so'zlar o'zbek adabiyotining buyuk namoyondalaridan bo'lmish Navoiy ijodidan barchamizga ma'lumki, inson hayotining turli bosqichlarini ifoda etishda ham, farqli hissiyotlarni ifoda etishda ham keng qo'llaniluvchi terminlardandir. Ayni tasvirlarni Ogahiy she'riyatida ham kuzatishimiz mumkin. Masalan,

Hazoni g'am aro afsusdaman **qish** yanglig', ey soqiy,

⁴ Ochilov. E. "Ogahiy.Jamling jilvasi". "O'zbekiston". Toshkent. 2013. B-38.

⁵ Asarlar"(6 jildlik) . Devon. 2-jild. "G'afur G'ulom" nashriyoti. Toshkent. 1972. B-11

Bahori lutf ila may gullarin ochg'ilki, **yoz** o'lsun ⁸

Yuqoridagi g'azaldan olingan baytda Ogahiy g'am-anduh hissini hazon bilan, afsus-nadomatni qish ifodasi bilan, lutf-marhamat hislatini bahor va bahoriy kayfiyat ila yo'g'rilguvchi hushnudlik yoz timsolida izohlanishini ko'ramiz.

Ogahiy ijodida ijobiy hissiyotlarning bahor, yoz, hurshid (quyosh), kunduz, bo'ston, guliston, subh-u sahar metaforalari bilan, slabiy hissiyotlarning esa kuz, qish metaforalari bilan bir qatorda shom, tun, sel, sahro kabi terminlar bilan ifodalanishiga guvoh bo'lamiz. Va bunga misol tariqasida Ogahiy qalamiga mansub mustazoddan parcha keltiramiz:

Hajring **tunida** qolmisham, oh, ey mohi tobon, **hurshid** kabi yuz,

Ko'nglim uyini **seli** g'aming ayladi vayron, vaslingdin oni tuz.

Yaldo **shabidek shomi firoqing** uzoq o'ldi, **subhidin** asar yo'q,

Kulbanga kelib aylaki **hurshidi** duraxshon qilg'il oni **kunduz**. ⁹

Yuqoridagi misralarda ko'rganingizdek, hijron hissi tun ta'rifi ila yor hajrida ko'z o'ngi qorong'ulikka g'arq bo'lishi va uning tashrifi bilan har yer nurafshon bo'lg'usini e'tirof etib hurshid (oftob) yuzli deya ta'riflanishini, iztirob g'ami natijasida tuyg'ularning ko'z yoshi bilan yuzaga chiqishi, va ushbu ko'zyoshining ko'lamining bo'rttirilishi sel termini orqali tasvirlanganligini, firog'-u ayriliqni qorong'u shomga qiyosi bilan subhidan (tong)dan nishon yo'qligini, kulbai vayronasiga tashrif buyursa-yu, firoq iztirobidan forig' bo'lib, sevinchga to'lishini kunduz atamasi bilan ifodalanganligini va yuqorida keltirilgan fikrni tasdig'ini ko'rishimiz mumkin. Quyida keltirilgan adib qalamiga oid murabba misolida esa ko'z yoshining to'fon metaforasi bilan tasvirlanganini, shuningdek, nola-yu fig'onining kuchli ekanligini e'tirof etish maqsadida otashga o'xshatilishi va ushbu otashning kuchlilik darajasidan osmon-u falakka yetishi bilan tasvir ifodasining mubolag'a san'ati bilan yoritilishini ko'rishimiz mumkin.

Jamoling shavqida yoqti **falakni o'tlug'** afg'onim

Bori yer yuzini **to'fong'**a berdi chashmi giryonim,

Eshit dodimni emdi darding o'ldi qosidi jonim,

Nigorim, mehribonim, mukrimat taxtida sultonim. ¹⁰

Ogahiyning "g'uncha" radifli g'azalining maqta'siga bir nazara solsak, unda ijosultonim.bir qator ijod na'munalarida ko'zga tashlanuvchi kun qismlariga oid bo'lgan terminlarni uchramiz: subh – sahar.

Visoling subhi yetmay xurram o'lmas Ogahiy ko'ngli,

Ki ochilmaydurur to yetmayin vaqti sahar g'uncha ¹¹

⁶ Ochilov. E. "Ogahiy.Jamling jilvasi". "O'bekiston". Toshkent. 2013. B-87.

⁷ G'anixo'jayev F. "Ogahiy she'riyatidan". O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983. B-118.

⁸ G'anixo'jayev F. "Ogahiy she'riyatidan". O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983. B-53

⁹ G'anixo'jayev F. "Ogahiy she'riyatidan". O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983. B-67.

¹⁰ G'anixo'jayev F. "Ogahiy she'riyatidan". O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983. B-70.

¹¹ "Asarlar"(6 jildlik) . Devon. 2-jild. "G'afur G'ulom" nashriyoti. Toshkent. 1972. B-41.

Ushbu baytning ilk misrasida visol subhi tashbehi orqali shoir ko'nglini nurafshon etguvchi tongdek majoziy ma'no bilan tasvirlayotgan bo'lsa, ikkinchi misrada haqiqiy tushuncha bilan ilk misradag fikrini tasdiqlayotganini va dalil keltriayotganini ko'ramiz: G'uncha zotan sahar vaqti kelmay ochilmagay deya.

O'zbek adabiyoti ijodkorlari adabiyotning qaysi davri bo'lishidan qat'iy nazar oshiqning muhabbatining qadrsizlanishi tasvirini, hislarining javobsiz qolishi, toptalishi holatini tasvirlashda eng ko'p hollarda **tuproq** ifodasi bilan keltirilganini bilamiz. Va Ogahiy ijodida ham aynan shunday tasvir ifodasini uchratishimiz mumkin.

Dema ko'nglingdek nedin ul kuy tavfin qilmog'ing,

Yo'lida **tufroq** bo'lg'on jismi vayronamg'a boq ¹²

Ogahiyning «Boq» radifli g'azalidan olingan ushbu parchada oshiqning his-tuyg'ulari ma'shuqa tomonidan qadrsizlanishi, e'tiborsiz qoldirilishi holati toptalgan tuproq ifodasi bilan tasvirlanganini ko'ramiz.

Ogahiy qalamiga oid ijod na'munalarida ko'rib chiqilganlarga asosan quyidagicha xulosalarga kelishimiz mumkin:

O'zbek adabiyotida insonlarning, ayniqsa, badiiy asardagi oshiq qahramonning ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari va ularning holatini tasvirini aks ettirishda ijodkorlar haqiqiy va majoziy ma'nolarda turli adabiy san'atlar qo'llagan holda tabiatga oid atamalardan keng ko'lamda foydalanadilar.

Bu o'rinda ushbu ifoda usulini o'z ijodida eng ko'p qo'llagan adib sifatida Ogahiy shak-shubhasiz e'tirof eta olamiz. Adibning jo'shqin hissiyotlarini uning «Bahor» radifli g'azalida bahorning jamiki o'ziga xos xususiyatlari bilan tasvirlaganini, kitobxonga shoir g'azalni yozish jarayonida his etgan tuyg'ularini to'liq yetkazib beraolganini, bahoriy kayfiyatni ulasha olganini, «Ilohi har kuning Navro'z bo'lsun» radifli g'azalini o'qir ekanmiz hissiyotlarimizni jumbushga keltiruvchi jo'shqinlikni, samimiylilikni, ijodkor qalamiga mansub «Qish» radifli bir necha g'azallar yozilgan bo'lib ularda ham ushbu so'zning o'z va ko'chma ma'nolarda ta'riflanganini, birida fasliy tushunchani, boshqasida shoirning ichki hissiyotini ifodalanganligini to'laqonli his etishimizga imkon berishi bilan ijodkor salohiyatining yuksak darajada ekanligini so'zsiz tasdiqlay olamiz.

Shuningdek, Ogahiy ijodidagi hissiyotlarda jo'shqinlik, shodlik, xursandchilik, baxt-sevinch kabi ijobiy hislarni ifodalashda quyosh, oy, subh, kunduz, bahor, yoz kabi terminlarning, g'am-anduh, qadrsizlanish, bag'ritoshlik, nola, dard, hijron, ayriliq kabi salbiy hissiyotlarning esa shom, tun, qish, sel, yomg'ir, to'fon, sahro kabi tabiatga oid hodisalarni anglatuvchi atamalar va ularga oid belgi va xususiyatlar orqali tasvirlanishiga guvoh bo'lar ekanmiz, O'zbek mumtoz adabiyotining yetuk namoyondasi, o'z ijodida insoniy tuyg'ularning o'ziga xos betakror tasvir vositalari bilan bezagan shoir Ogahiy ijodi orqali nafaqat yurtiga bo'lgan muhabbatini balki, bu bilan bir qatorda tabiatga bo'lgan sevgisini, mehrini ham insoniy hislarni tabiatga oid tushunchalar yordamida aks ettirgan holda, ularni keng ma'noda qo'llab ijod mahsullarini boyitib yoritib berganini anglamoq mumkin. Ogahiy mahoratini uning ushbu tasvir ifodalarini qo'llashda bir qator adabiy san'atlar, jumladan, tashbeh, tashxis, tazod, tanosub kabilardan keng foydalangan holda ijodining mazmunsorligini oshirganida ham ko'ramiz. Va har safar Ogahiy ijodiga murojaat qilganimizda avvalgidan ham teranroq, yashirin, ma'nodor yangi fikr va mulohazalar bizni chulg'ab olaveradi.

¹² G'anixo'jayev F. «Ogahiy she'riyatidan». O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983. B-35.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Asarlar"(6 jildlik). Devon. 1-jild. "G'afur G'ulom" nashriyoti. Toshkent. 1971.
2. "Asarlar"(6 jildlik). Devon. 2-jild. "G'afur G'ulom" nashriyoti. Toshkent. 1972.
3. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi". O'ME DIN. (2000-2005).
4. G'anixo'jayev F. "Ogahiy she'riyatidan". O'KMK nashriyoti. Toshkent.1983.
5. Hojiahmedov A. "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. "SHarq" nashriyoti. Toshkent. 2003.
6. Ochilov. E. "Ogahiy.Jamling jilvasi". "O'zbekiston". Toshkent. 2013.
7. www.ziyouz.com kutubxonasi.